

## QO‘G‘IRCHOQ TEATRI DRAMATURGIYASIDA QAHRAMON OBRAZINI YARATISH MASALASI

**Abbosjon Umurzoqov Shavkat o‘g‘li**  
O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatr san’ati”  
kafedrasini o‘qituvchisi.

**Berdimurodov Islom Rustamovich**  
O‘zDSMI Teatr san’ati fakulteti tyutori

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ayni bugungi zamon va kelajak bolalar dramaturgiyasidagi dolzarb muammolar haqida yozilgan. Teatr tarbiya maskani ekanligini hisobga olib, bolalar tarbiyasida teatrning ma’naviyat va ma’rifat maskani sifatida o‘rni beqiyos. Teatrning asosini dramaturgiya tashkil qiladi. Demak, bugungi kunda bolalar dramaturgiyasini o‘rganish va tadqiq qilish yurtimizdagi eng dolzarb masaladir.

**Kalit so‘zlar:** Qog‘irchoq, teatr, aktyor, an’anaviy, dramaturgiya, marionetka.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье написано об актуальных проблемах детской драматургии сегодня и в будущем. Учитывая, что театр является местом воспитания, роль театра как места духовности и просвещения в воспитании детей несравнима. Основа театра – драматургия. Поэтому изучение и исследование детской драматургии является наиболее актуальным вопросом в нашей стране на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** Кукла, театр, актёр, традиционный, драматургия, марионетка.

### ABSTRACT

This article is written about the actual problems of children’s dramaturgy today and in the future. Given that the theater is a place of education, the role of the theater as a place of spirituality and enlightenment in the upbringing of children is incomparable. The basis of the theater is dramaturgy. Therefore, the study and research of children’s drama is the most pressing issue in our country today.

**Keywords:** Puppet, theatre, actor, traditional, dramaturgy, marionetka.

Hozirgi kunda shiddatli zamon, hayotning o‘zi barchamizning oldimizga o‘ta muhim va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Xususan, el-yurtimizni turli xavf-xatarlardan asrash, unib-o‘tib kelayotgan yosh avlodimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga ehtirom ruhida barkamol insonlar etib tarbiyalash, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurash olib borish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev**

Teatr san‘ati asrlar osha hamon kishilarni o‘ziga maftun etib kelmoqda. Bu ajib san‘atning oshuftasi, uning sehriga mahliyo bo‘ladiganlar topilar ekan, u yashayveradi. Asrlar mobaynida teatr san‘atining insoniyatni ezgulikka chorlab, uning dunyoqarashini kengaytirish, tarbiyaviy vosita vazifasini bajarishda xizmati nechog‘li ulug‘ ekanligiga tarix guvoh. Buyuk ma‘rifatparvar va teatr arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy “Teatr – bu ibratxonadur”,<sup>34</sup> deb yozgan edi. Sahna asarini yaratib uni teatrdan namoyish etishdan asosiy maqsad ham insonlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishdir. Teatrning tarbiya vositasi ekanligi, unda kishilar ongiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qilish imkoniyatining kengligi, estetik zavq bag‘ishlab, tomoshabinga ma‘naviy-axloqiy, tarbiyaviy bilimlarni berib, dunyoqarashini kengaytirib, didini oshirishda ko‘mak beradigan maskan ekanligini baralla aytish mumkin.

San‘at turlari orasida eng qadimiysi ham, eng yoshi ham qo‘g‘irchoq teatri bo‘lsa kerak. Sababi uning yoshi millat yoshi bilan barobardir. Uning ildizi xalqimizning boy folklori, urf-odatlar, udumlari, masxaraboz va qiziqchilar, dorbozlarimizning ijodlari bilan chanbarchas bog‘liq. Teatrlarda rolni faqat aktyor ijro etsa qo‘g‘irchoq teatrida aktyor o‘zi bilan bir qatorda qo‘g‘irchoqqa jon bag‘ishlaydi. Shuning uchun ham bu sohada mutaxassislar juda kam faoliyat yuritadi.

Jumladan farzand tarbiyasi millat tarbiyasidir. Teatr tarbiya maskani ekanligini hisobga olib, bolalar tarbiyasida teatrning ma‘naviyat va ma‘rifat maskani sifatida o‘rni beqiyos. Shu asoslarni inobatga olgan holda bolalar va qo‘g‘irchoq teatri sahnasi uchun yozilayotgan va sahnalashtirilgan asarlarga jiddiy e‘tib qaratish kerak. Chunki asar yozish mushkul bo‘lgani kabi, uni sahnalashtirish ham katta mahorat talab qiladi. Moskva qo‘g‘irchoq teatri rejissyori Reyn Agur shunday deydi: “Bizning tomoshabin – aqlli bolalardir. Ularga sahnada haqiqiy muammo kerak. Hayotiy! Ertaknamo emas”. Bunda rejissyor bolalarga drama kerak demoqchi emas, ertakka yo‘g‘rilgan hayotiy, mulohazaga chorlaydigan asar haqida fikr yuritmoqda. Bu bilan u bugungi kichik tomoshabinga yuqori baho bermoqda. Dramaturglarni bolalarni yolg‘on voqealar bilan ishontira olmasligi haqida ogohlantiryapti.

<sup>34</sup> Behbudiy M. Teatr nadur? Tanlangan asarlar. T., Ma‘naviyat., 2009., 175-b.

Shu bois, qo'g'irchoq teatrlari faoliyati o'rganilganda nafaqat dramaturgiyasi, balki sahna talqini va obraz yaratish muammolarini o'rganish ham dolzarb. Zero, dramaturgiyani yuzaga chiqaruvchi birlamchi omil sahna talqini hisoblanadi. San'atshunoslik fanida aynan qo'g'irchoq teatri bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar ozchilikni tashkil etadi. Qo'g'irchoq teatri spektakillarida qaxramon obrazini yaratish masalasiga yaxlit murojaat bo'lmagan, San'at sohasi insonni ruhiy tomondan qo'llab-quvvatlab, ma'naviy jihatdan boyitib boradi. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari tomonidan san'atning barcha turlarini rivojlantirish, takomillashtirish uchun turli farmon, qaror, farmoyish va tashabbuslar ishlab chiqilmoqdaki, ularning oliy maqsadi jamiyatda sog'lom muhit yaratish, insonlarga to'g'ri yo'llanma berish, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, jamiyatga foydasi tegadigan shaxs qilib tarbiyalash va boshqa ijobiy jihatlarni jo qilishga qaratilgan.

Ushbu maqola ayni bugungi zamon va kelajak bolalar dramaturgiyasidagi dolzarb muammolar haqida yozilgan.

XIX-XX asr boshlari esa o'zbek qo'g'irchoq teatri asosan "Chodir xayol", "Chodir jamol" teatrlari bilan xarakterlanadi. Ushbu teatrlar faqat shakl jihatidan emas, dramaturgiyasi bilan ham bir-biridan farqlanadi. Masalan, "Chodir jamol" teatrining alohida xususiyatlari mavjud. Ushbu teatrda qo'g'irchoqlar qo'lga kiyib o'ynaladi, tomoshalar kunduz kuni namoyish etiladi. Dramaturgiyasi esa kundalik hayot voqealari asosiga quriladi. "Chodir jamol" deb atalishining sababi tomosha doira qilib ishlangan chodir ichidan ko'rsatilishida. Bu chodir odatda qizil yoki sariq matodan tikilgan bo'lib, uning quyi qismi qo'g'irchoqbozning beliga bog'lanadi. "Yuqori tomoni esa pastu baland kesilgan bo'lib, oshiq-moshiqli bolorchop, ostona, ikkita yon cho'p va tirgovichlar yordamida chorkunjak sahna tusini oladi"<sup>35</sup>. Qo'g'irchoqboz chodir ortidan ikki qo'lga bittadan qo'g'irchoq olib tomosha ko'rsatadi. Chodirning ichki qismiga cho'ntaklar tikilgan bo'lib, ularda tomosha vaqtida o'ynatiladigan qo'g'irchoqlar va boshqa kerakli anjomlar turadi.

"Chodir xayol" teatri ham vaqt o'tgani sayin takomillashib borgan. Yangidan yangi voqealar va yangidan yangi personajlar teatrga kirib kelgan. Qo'g'irchoqbozlar zamon mavzusi va hayotni aks ettiruvchi voqealarni bo'rttirib satirik tomoshalar qo'yishgan. XIX asr oxirlariga borib ular orasida yangi qahramonlar paydo bo'lgan. Ulardan do'xtir Botirshin, Saydulla yuzboshi, Xitoy do'xtir, Oysha xotin olmaboz, farangi qiz-yigit, Hamid o'g'ri bilan uning sheriklari, Badmast kabi personajlar shular jumlasidandir.

O'zbek qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasiga oid qimmatli ma'lumotlarni biz og'zaki dramaturgiyani qog'ozga tushirgan olimlar ijodidan bilib olamiz. 1928 yilda

---

<sup>35</sup> O'sha manba. – B.188.

M.F.Gavrilovning “Kukolnii teatr v Uzbekistane” (“O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatri”) kitobi rus tilida nashr etilgan. Undagi ma’lumotlar P.A.Komarov materialariga tayangan bo‘lsada, keltirilgan ikki pesa matni qo‘g‘irchoq teatri dramaturgiyasi haqida kengroq tasavvur hosil qilishimizga zamin yaratadi. M.F. Gavrilov kitobda pesalar matnini berish bilan birgalikda, undagi qahramonlarning suratini ham ko‘rsatib o‘tgan. Suratlar tomoshalarni ko‘z oldimizga keltirishga va qahramonlarning xarakterlarini aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, asosan M.Qodirovning ekspeditsiyalarda Respublikamizdagi turli xududlarda istiqomat qiluvchi keksa qo‘g‘irchoqbozlardan ham qo‘g‘irchoq teatri dramaturgiyasiga oid to‘plagan ko‘plab ishonchli materiallar va pesa matnlari og‘zaki dramaturgiyani o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

“Chodir jamol” teatrining eng asosiy xususiyati shuki, har bir tomoshada albatta Polvon Kachal ishtirok etgan. Birorta tomoshani bu qahramonsiz tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ham xalq teatrni ba’zan “Polvon Kachal” teatri deb atagan.

“Chodir jamol” teatri dramaturgiyasi bir ko‘rinishdan sodda ko‘rinadi. ya’ni ikki qahramon Kachal Polvon va Bichaxonning to‘qnashuvidan boshlanib, ularning suhbatidan so‘ng turli epizodlar ko‘rsatiladi. Biroq bu jarayon hozirgi zamon dramaturgiyasiga qaraganda ancha murakkab. Sababi, har yangi spektakl uchun yangi voqea kiritish va voqea dialoglarini har gal yangitdan jamoa o‘rtasida kelishib olish o‘ta mushkul ish. Buning uchun qo‘g‘irchoqbozlarning har biri aktyorgina bo‘lib qolmay, dramaturg sifatida ham fikr yuritishi lozim bo‘lgan. An’anaviy qo‘g‘irchoq teatri dramaturgiyasining alohida xususiyati ham shunda. U og‘zaki kreativ dramaturgiyadir. Har tomoshada pesa sayqallanib, boyib boradi.

Zamon taraqqiy etgani sayin unga mos ravishda bolalar dunyoqarashi ham kengayib bormoqda. Ularga yangi mavzu, yangi shakl va yangi qahramonlari bor pyesa asosida sahnalashtirilgan spektakllar kerak. Avvalgi tulki-yu bo‘rilarni qo‘shiq bilan aldab qochib ketgan bo‘g‘irsoq ularni ishontirolmay qolgan. Shuning uchun, bugungi kichik tomoshabin uchun qanday sahna asarlari yetkazib berilishi kerakligini bugungi kuning dolzarb muamosi hisoblanadi.

Shuning uchun, bugungi kichik tomoshabin uchun qanday sahna asarlari yetkazib berilishi kerakligini aniqlab olishimiz kerak. Va ularni amalga oshirishda esa quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- qo‘g‘irchoq teatri dramaturgiyasi va rejissurasining tarixiy-nazariy asoslarini tadqiq etish;
- mustaqillik davri qo‘g‘irchoq teatri repertuari va sahna talqinlarini tahlil etish;
- zamonaviy qo‘g‘irchoq teatri repertuarida milliy dramaturgiyaning o‘rni va sahna talqinlarida milliy ifoda uslublarining namoyon bo‘lishini tadqiq qilishimiz darkor.

Umuman, sahnaviy obraz yaratish jarayonida dramaturgiyani ahamiyati, o'zni haqida so'z yuritadigan bo'lsak, qo'g'irchoq teatri uchun yozilgan maxsus pe'salarni o'ziga xosligi haqida alohida to'xtalish kerak. Lekin, qo'g'irchoq teatri uchun yozilgan ba'zi pesalarni o'qib va ularga asos bo'lgan asarlarni, ya'ni ertaklarni, hikoyachalarni o'qib bir narsaga amin bo'lamiz: Badiiy yaxlit spektakllar bir nafasda yozilgan metaforik, she'riy pesalar asosida qo'yilishi mumkin. Ssenariy, inssenirovkalar baribir muallif yozuvchini g'oyasiga, uslubiga "bo'ysungan" holda yozilib, so'zlarga boy bo'lib qo'g'irchoq teatrlarini o'ziga xosligiga ko'pincha to'g'ri kelmaydi.

Qo'g'irchoq teatri bizning mamlakatimizda katta shuhrat qozongan. Teatr sa'atining bu janr ildizlari qadimda folklorga, an'anaviy xalq teatri san'ati oqimlariga borib taqalgan. Hozirgi kunda o'zining rivojlanishi bo'yicha qo'g'irchoq teatrlari katta imkoniyatlarga ega. Qo'g'irchoq teatrlari dolzarb, chuqur ma'noga ega bo'lgan, qiziqarli jihozlangan spektakllari bilan, boshqa janrdagi teatr spektakllari qatoridan joy olishi kerak. Bu esa ularning oldida turgan eng qiyin, ammo ma'suliyatli vazifalardan biridir.

Sahnada qo'g'irchoq o'rniga odam gapiradi. Qo'g'irchoq hech qachon insondek harakat qila olmaydi. U qanchalik aql bilan yasalishiga qaramay baribir insondek beqiyos harakatlar va jonli mimikalarni bajara olmaydi. Shu bilan birga haqiqiy teatr (dramatik yo'nalishdagi) bajara olmagan ba'zi narsalarni qo'g'irchoq teatri yengillik bilan bajaradi. Ba'zilar "qo'g'irchoq teatri bolalarga kerakligi bilan juda muhim" deydilar. Bu juda to'g'ri gap. Hamma san'at turlari-adabiyot ham musiqa ham, tasviriy san'at ham bolalarga juda kerak. Bu ma'noda qo'g'irchoq teatri bulardan qolishmaydi. Bolalar uchun chiqarilayotgan adabiyotlar sifati qanchalik yaxshi bo'lsa, qo'g'irchoq teatri ham shu talab darajasida bo'lishi lozim. Biroq, teatr sahnasidagi qo'g'irchoq, tomoshabin yoshining o'lchovini belgilovchi emas, balki tomosha san'atining mustaqil bir turidir.

Xullosa qilib aytganda o'zbek qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasining tarixi qadim zamonlardan shakllanib, mukammal kompozitsiya, o'z qahramonlariga ega teatr shakliga kelgunga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Mustaqillik yillarida repertuar siyosatiga yil sayin katta e'tibor qilindi. Qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasiga teatrshunoslar va boshqa shu san'at ixlosmandlari befarq emasligi yaqqol namoyon bo'ldi. Festivallarda teatrlarning ijodiy holatini aks ettiruvchi, ularning imkoniyatlarini ifoda etuvchi spektakllar ishtirok etdi. Shu spektakllar orqali teatrlar repertuariga nazar tashladik. Ularda qanday sahnaviy izlanishlar ketganiga guvohi bo'ldik. Shu bilan bir qatorda o'sha davrdagi teatrlardagi kamchiliklar ham oydinlashdi. To'qsoninchi yillar boshlarida teatr milliy asarlarga muhtojligi yaqqol sezilib turdi. Ularda xorijiy dramaturgiyadan qochish va milliy asarlarni yozishga bo'lgan intilish kuzatildi.

Yuqorida sanab o‘tilgan omillar bugungi kunda bolalar dramaturgiyasi orqada qolayotgani haqidagi fikrlarni keltirib chiqargan. Ularni bartaraf etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- Bolalar dramaturgiyasiga oid muammolarni san’atshunoslik institutida asosiy tadqiqot masalalaridan biriga aylantirish;
- Bolalar uchun mo‘ljallangan pesalar to‘plamlarini nashr qilish;
- Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi repertuar tahrir bo‘limida nafaqat bolalar uchun mo‘ljallangan pesalarni, balki Respublikadagi barcha pesalarni to‘plab pesalar kutubxonasini tashkil qilish. Shuningdek, ushbu kutubxonaning elektron shaklini ham shakllantirish;
- O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda bolalar yozuvchi va shoirlariga mavzulashtirilgan pesalar buyurtma qilish. So‘ngra pesa yozayotgan mualliflarni rejali ravishda teatrlarga biriktirish. Chunki teatrdan ayro holda pesa yozib bo‘lmaydi.
- Teatrlarning yillik repertuar rejasiga soni aniq belgilangan o‘zbek dramaturgiyasi namunalarini kiritilishini va ularning bajarilishini talab qilish.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun bugungi kunda imkoniyatlar yetarli.. Kelgusida ular amalga oshirilsa va davomiyligini saqlab qolsa, bolalar dramaturgiyasi san’atshunoslik fanida eng rivojlangan sohaga aylanadi. Zero, bizning maqsadimiz yosh avlod uchun bugungi davr talablariga javob beradigan sahna asarlari yetkazib berish va bolalar dramaturgiyasini barqaror holatga olib kelishdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Raxmonov M. O‘zbek teatri: qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. – Toshkent: Fan, 1975.
2. Qodirov M. An’anaviy teatr dramaturgiyasi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
3. Qodirov M., Qodirova S. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. – T.: Talqin, 2006.
4. Rizayev SH. Jadid dramasi. –Toshkent: Sharq, 1997.
5. Imomov B., Jo‘rayev Q., Hakimova H. O‘zbek dramaturgiyasi tarixi– Toshkent: O‘qituvchi. – 1995.
6. Maryam Ashurova bilan qo‘g‘irchoq teatri dramaturgiyasi haqidagi suhbat. Toshkent – 2021. 19-fevral, 26-fevral, 12-mart, 16-aprel.